

ASHYOVIIY HUQUQLARNI XALQARO MIQYOSDA HIMOYA QILISH MASALALARI

Nomozov Xusan

TerDU Yuridik fakulteti o'qituvchisi

Islomov Egamshukur

TerDU Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ashyoviy huquqlarning kelib chiqish tarixi, ashyoviy huquqlar tushunchasi, ashyoviy huquqlarning turlari, ularning vujudga kelish asoslari, ashyoviy huquqlarning kollizion masalalari, mulkga egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddatlari, chet el davlatlarining qonunchilik amaliyoti, ashyoviy huquqlarga bo'lgan huquqni himoya qilish (negator va vindikatsion davolar) va boshqa holatlar batafsil keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro sharnoma, konvensiya, mulkdor, ashyo, mol-mulk, kollizion, unifikatsiyalovchi, arbitraj amaliyoti, negator, vindikatsin, servitut, immovable, movables, res nullius

KIRISH: Bugungi kunda xalqaro miqyosda sud va arbitraj amaliyotida, xalqaro sharnomalar (konvensiya, bitim, pakt va boshqalar)da va har bir xalqaro ommaviy huquq subekti bo'lgan davlatlarning ichki qonunchiligida (moddiy-huquq normalar) keng qo'llanilayotgan ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi bilan bog'liq kollizion (to'qnashuvchi huquq) masalalarga yecim olish huquqini vujudga keltiradi. Fuqoroviy huquqiy munosabatning bu turi bilan barcha fuqorolar o'ziga tegishli bo'lgan ko'char va ko'chmas mol-mulkga bo'lgan huquqlarni to'g'ridan-to'g'ri chet el hududida amalga oshirish huquqini yuzaga keltiradi.

Demak, chet el mamlakati hududida ko'char va ko'chmas mol-mulki bo'lgan fuqorolarga ushbu qoidalar mos keladi desak adashmagan bo'lamiz.

ASOSIY QISM: Ashyoviy huquqlarning vujudga kelish tarixiga nazar tashlaymiz, albatta bu jarayonni davrlarga bo'lib o'rganishimiz maqsadga muvofiq, bunda birinchi navbatta qadimgi dunyo davriga yuzlansak; qadimgi dunyo tarixidan ma'lumki mol-mulk hammaga tegishli va undan hamma foydalangan. Insoniyat paydo bo'lishi va ularning ongi rivojlanishi shu bilan birga to'dalarga birlashib o'z jamiyatlarini tuzishi orqali o'zlarining yashab turgan hududlarga egalik qilish ularni boshqa to'dalar va tabiatning zarar yetkazuvchi jonzodlaridan himoya qilishi orqali shakllangan. O'rta asrlar tarixi, bevosita bu davr feodal tizim bilan bog'liq ya'ni, barcha mol-mulk yo hukumdorga yo qirollar qo'lida bo'lgan va ushbu yerlarda oddiy xalq (dehqonlar) mehnat qilgan. Bu o'z-o'zidan faqatgina foydalanish huquqini keltirib chiqargan va shu bilan birga foydalangani uchun to'g'ridan-to'g'ri hukmdorga

turli xilda soliqlar to'lagan(natura yoki olgan daromat tangalari bilan).O'rta asrning oxirlariga kelib feodal tizim pasaydi va yangi dehqon va savdogarlar sinfi shakllanib boradi. Bu o'z navbatida mulkga egalik qilish huquqining rivojlanishiga asos bo'ladi. Buyuk geografik kashfiyotlar davriga kelib, yangi yerlar ochildi , Yevropa shaxarlari rivojlandi va o'z navbatida savdogar va dehqon xo'jaliklari boyidi.Bu o'z-o'zidan shuni ko'rsatadiki,davlatlar o'rtasida turli tavarlar ayriboshlash bo'yicha sharnomalarning yuzga kelishiga turtki bo'ldi. Bugungi kunda,bozor iqtisodiyoti davriga kelib ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi ,o'zgarishi va bekor bo'lishi bilan bog'liq munosabatlarning keng jamoatchilik nazarida ekanligi muhim masala hisoblanadi. Xalqaro ommaviy huquq subyekti bo'lgan davlatlar o'rtasida diplomatic munosabatlarning kengayishi natijasida ularning fuqorolari o'rtasida ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi,o'zgarishi, bekor bo'lishi va ulardan kelib chiqadigan turli xidagi nizoli vaziyatlarni hal etish bilan bog'liq munosabatlarning shakllanishiga olib keldi.Kelib chiqadigan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni hal etish uchun xalqaro huquq subyekti bo'lgan davlatlarni o'zida jamlagan xalqaro tashkilotlarni vujudga keldi. Bevosita bu xalqaro tashkilotlar fuqoroviy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi va ularga xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda yechim beruvchi unifikatsiyalovchi(birxillashtiruvchi) normalarni ishlab chiqishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksining 165-moddasiga muvofi¹q Ashyoviy huquqlar sirasiga, mulk huquqidan tashqari,operativ boshqaruv huquqi,meros qilib qoldirilgan yer uchastkasiga umurbot egalik qilish huquqi,yer uchastkalariga doimiy egalik qilish va foydalanish huquqi va servitut huquqi kabi turlari ko'rsatib o'tilgan.O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi 173-moddasi O'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut),bu normaga ko'ra,ko'char mulk egasi qo'shni yer uchastkasidan va boshqa hollarda esa boshqa yer uchastkasi egasidan ham cheklangan holda foydalanib turishni talab qilishi mumkin.

Ko'pgina rivojlangan davlatlarda ashyoviy huquqlar jamiyatning ajralmas bir qismi sifatida namoyon bo'ladi.Va hamma davlatlarda ashyoviy huquq masalalarida yuzaga keladigan nizolar turlicha hal etiladi.Bu albatta, davlatlarning o'z mustaqillikka egaligi va o'z milliy qonunchiligi mavjudligini ko'rsatadi.Mulklar o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:ko'char(movables) va ko'chmas(immovables) mulklarga va ularning bir-biridan tubdan farq qilishi bilan muhim ahamyat kasb etadi. Ko'plab davlatlarda ko'char va ko'chmas ashyolarga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi ham tubdan farq qiladi.Biz bilamizki,ko'chmas mulklarga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi xalqaro doktrina va sud amaliyotida mulk joylashgan mamlakat qonunchiligi qo'llanilishi belgillab qo'yilgan.Bu o'z navbatida, boshqa davlatlarning qonunchiligini chetlab o'tishga olib keladi,agarda mulkdor boshqa mamlakat fuqorosi

¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi

bo'lsa. Shu o'rinda ayib o'tish mumkinki, agar mol-mulk joylashgan hudud boshqa davlat hudud ammo O'zbekiston yoki umuman boshqa mamlakat hududida joylashgan davlat reystridan o'tkazilgan hollarda, mulk qaysi mamlakat hududida reystrga qo'yilgan bo'lsa o'sha davlat qonunchiligi bo'yicha mulkiy masalalar hal etiladi. Boshqa tomondan, ko'char ashyolar turlarini nisanab o'tsak, bular: transport vositalari, qimmatbaho qog'ozlar va boshqa shaxsiy buyumlar kiradi. Ko'char ashyolarga nisbatan vujudga keladigan huquq brmuncha chigal bo'lib, bunda ko'p hollarda ko'char mulk joylashgan davlat qonuni amal qilinsa ham biroq mulk qaysi davlat hududida shaxsning qonuniy asoslarda egaligiga o'tgan bo'lsa, mulk joylashgan joy o'zgarishidan qa'tiy nazar uning mulkdorida egalik huquqi yo'qolmaydi va bu boshqa davlatlar hududida ham so'zsiz tan olinadi. Bundan tashqari, xalqaro sud amaliyoti va doktirinalar normalariga ko'ra mulkning xususiyatiga ko'ra miqdori uning joylashgan joy qonuni bo'yicha baholanadi shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ahyoning joylashgan joyi ozgarishi bilan unga bo'lgan huquq mazmuni o'zgaradi. Turli davlatlar qonunchiligini o'rganadigan bo'lsak, uzoq yillar davomida Buyuk Britaniya va AQSH qonunchiligidan bilamizki, ko'chmas mulklarga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi mulkdorning shaxsiy qonuni bilan belgilanadi. Ya'ni bu holat shuni ko'rsatadiki, mulkning joylashgan hududidan qa'tiy nazar uning mulkdori qaysi davlat fuqorosi ekanligiga va shu bilan birga ushbu davlat fuqorolik qonunchiligiga bog'liq. Ammo Fransiya qonunchiligida esa ko'char mulklarga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi, ashyo joylashgan yer qonuni qo'llaniladi. Agarda meros qoldirilayotgan mulkka nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi bevosita meros qoldiruvchining shaxsiy qonuni qo'llanilishi nazarda tutilgan. Hozirgi kunda mulk huquqining vujudga kelishida shaxsning shaxsiy shaxsiy qonun tamoilli juda kam mamlakatlar (Argentina, Brazilya) hududida saqlanib qolgan. O'zimizning mamlakat qonunchiligini oladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksining 1184-moddasida "Ashyoviy huquqlarga nisbatan qo'llaniladigan umumiy qoidalar keltirib o'tilgan. Ushbu moddaga ko'ra, ko'chmas va ko'char mol-mulkka nisbatan mulk huquqi hamda boshqa ashyoviy huquqlar, agar qonunda boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bu mol-mulk joylashgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi. Mol-mulkning ko'chmas yoki ko'char ashyolarga mansubligi, shuningdek mol-mulkning boshqacha yuridik baholanishi ana shu mol-mulk joylashgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi. Mulk huquqi bilan bog'liq munosabatlarning kollizion masalalarini hal etish bo'yicha, 1958-yildagi Gaagada qabul qilingan "Tovarlarning xalqaro oldi-sotdisiga nisbatan qo'llaniladigan huquq to'g'risida"gi konvensiyaga ko'ra, ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi lex rei sitae tamoyiliga asoslanmaganligi va bu masala tashqi savdo oldi-sotdi bitimiga taraflar tomonidan qo'llaniladigan huquqqa bo'ysunishligiga qarab yechim beriladi.

Bir qancha manbalar shuni ko'rsatadiki mulk huquqining ikki xil usulda: dastlabki

va hosila usullarda vujudga kelishi belgilab qo'yilgan. **Dastlabki usul** –bunga misol qilib, biror-bir individ ashyoni ishlab chiqishi yoki uni kash etgan narsalariga bevosita egalik qiladi va tassaruff etadi. Bundan tashqari ushbu shaxs ashyoni yo'qotgan yoki unga egalik huquqidan voz kechgan(res nullius) va uni boshqa bir shaxs egalik qilinganda, ushbu shaxsga nisbatan egalik huquqi paydo bo'ladi. **Hosila usul** – bu mulk huquqining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi misol uchun: mulk to'g'ridan-to'g'ri boshqa shaxs egaligiga o'tadi va bu jarayonda mulk o'z xususiyatini yo'qotmaydi shunchaki, mulkdor o'zgaradi. Bu usulni yana ham kengroq tushuntiradigan bo'lsak, mulk huquqida huquqiy vorislikka yo'l qo'yiladi. Oldi-sotdi, ayirboshlash shartnomalari, hadya va boshqa bitimlar dastlabki usulda mulk huquqining vujudga kelishiga yaqqol misol bo'laoladi. Demak, dastlabki usulda mulk huquqining vujudga kelishida mulk egasining huquq va burchlari qonunchilik normalari bilan belgilanadi va tartibga solidi. Xosila usulda mulk huquqiga nisbatan huquq va majburiyatlar, mulkdorning taraflar bilan kelishuviga ko'ra va davlat boshqaruv organlarining harakat yoki harakatsizligida belgilanadi. Xosila usulda mulk huquqini olishda ko'pgina davlatlarda shartnomaviy usul ko'p uchraydi (qarz, pudrat, oldi-soti). Avvalom bor mulk huquqi muddatsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan o'z erkiga ko'ra foydalanishi va uni tasarruf etishi mumkin, hech kim uning mulkga nisbatan egalik huquqini muddatlar bilan cheklashga haqi yo'q. Agarda bunday cheklashlar mavjud bo'lsa bu holat qonuniy tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi. Mol-mulkga nisbatan egalik qilish huquqini beruvchi muddatlar mavjud bu jarayon hamma davlatlarda turlicha qilib belgilangan. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 187-moddasiga ko'ra, mulkdor bo'lmagan, ko'chmas mulklarga nisbatan 15 yil, ko'char ashyolarga nisbatan 5 yil davomida halol, oshkoro va uzluksiz egalik qilgan shaxs mulk huquqini oladi. Yana shunga o'xshash misol sifatida Fransiya qonunchiligini olishimiz mumkin. U yerda faqatgina ko'chmas mol-mulklarga nisbatan egalik qilish huquqining vujudga kelish muddari 30 yil qilib belgilangan. Ushbu muddat Buyuk Britaniya qonunchiligida esa 12 yil davomida insofli egallov sifatida kiritilgan.

Ashyoviy huquqlarga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi bilan bog'liq munosabatlar taraflarning kelishuviga ko'ra, lekin kelishuv bo'lmagan taqdirda esa kollizion normalar asosida hal etiladi. Masalan; oldi-soti shartnomasini oladigan bo'lsak, bunda mulk huquqi, agarda taraflar kelishuvida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, sotuvchi sotib oluvchiga tavarni bergan vaqtdan boshlab vujudga kelishi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1185-moddasida ham Ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi va bekor bo'lishi ifoda etib berilgan, shuningdek, mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi va bekor bo'lishi, agar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi yoxud bekor

bo'lishi uchun asos bo'lgan harakat yoki boshqa holat sodir bo'lgan paytda bu mol-mulk turgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi. Bugungi kunda ashyoviy huquqlarni (mulkiy huquq) xalqaro miqyosda himoya qilish bo'yicha Roman-German huquq tizimi katta ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Roman-German huquq tizimida mulkdor buzilgan huquqlari bo'yicha ikki xil tartibda o'zining buzilgan huquqlarini himoya qilishi mumkin, bular: negator (actio negatoria) va vindikatsion (actio rei vindicatio) dir. Negator (actio negatoria) davo-mulkdor o'z huquqlarini har qanday buzilishdan himoya qilishi, garchi bu buzilish egalik qilish huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmasa ham. Vindikatsion (actio rei vindicatio) davo-mulkdor o'z mol-mulkini boshqalarning qonunsiz egaligidan talab qilish huquqini beruvchi davodir. Quydagi davolar mulkdorning oldingi huquqlarini tiklashni (status quo) nazarda tutibgina qolmay, mazkur buzilish natijasida mulkdorga yetkazilgan moddiy zararining ham o'rnini qoplashni talab qilish huquqidan yuzaga chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi 228-moddasida ham bevosita vindikatsion va negator davolar haqida keltirib o'tilga. Xorij tajribasiga qaraydigan bo'lsak, birgina Fransiyada aynan kodekslarida vindikatsion va negator davolar haqida qat'iy norma keltirilmagan, ammo Fransiya doktrinalar va xalqaro sud amaliyoti hujjatlariga rioya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi 1188-moddasida aytilganki, Mol-mulk va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilish bo'yicha ariza beruvchining tanlovi bo'yicha mol-mulk joylashgan joy yoki sud qaysi mamlakatga tegishli bo'lsa o'sha mamlakat huquqi qo'llaniladi, ko'chmas mol-mulk va boshqa ashyoviy huquqlarga nisbatan davo mulk joylashgan mamlakat huquqi qo'llaniladi, ammo agarda chet el hududida joylashgan mulk O'zbekiston Respublikasi hududida "Davlat reyestr" idan o'tgan bo'lsa, O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha hal etiladi.

XULOSA: Xulosa o'rnida shuni takidlashimiz joizki, ashyoviy huquqlarning kollizion masalalarini taribga solish va shuning bilan birga O'zbekiston Respublikasi fuqorolari, chet el fuqorolarining mulklarini xalqaro miqyosda himoya qilish biz yuristlarning eng ustuvor vazifamizdir. Ashyoviy huquqlar-bu shaxslarning o'ziga tegishli bo'lgan uzviy huquqi va bu huquq unga muddatsiz egalik qilish, foydalanaish va shu o'rinda tasarruf etish huquqini beradi. Ashyoviy huquqlarni xalqaro miqyosda himoya qilishda kollizion masalalarning o'rnini beqiyosdir. Sababiki, xalqaro miqyosdagi ishlarda qatnashuvchi sudya, advokat va arbitrlarning huquqiy malakasini oshiradi va davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslarda xalqaro shartnomalarga, xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga, xalqaro sud chiqargan hujjatlarga nisbatan hurmat ruhini uyg'otishidadir. Albatta, Fuqorolik huquqiy munosabatning bu turida o'zining buzilgan huquqlarini xalqaro miqyosda talab qilishi va ularni huquqiy tartibda himoya qilishidan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi;
2. Topildiev V.R, Fuqorolik huquqi darslik T: Toshkent-2022-yil;
3. Xalqaro xususiy huquq: Darslik- 2019 , Mualliflar jamoasi: y.f.d., dots. I. Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: Toshkent nashriyoti; 123, 124, 125-betlar;

Internet saytlari:

4. <https://soff.uz/product/huquqshunoslik-ashyoviy-va-nomulkiy-huquqlarni-kollizion-masalalari-2>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ashyoviy_huquq
6. <https://library-tsul.uz/mulk-huquqi-va-ashyoviy-huquqlar-milliy-va-xorijiy-tajriba-asosida-asadov-sh-2024/>
7. <https://chatgpt.com/>